Volume 2, Issue 2,2024

XORAZM SHEVASI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI TO’G’RISIDA

Saburov Bobur Komiljon o’g’li

Annotatsiya: Xorazm shevasi turkiy tillar sharqiy o‘g‘uz guruhiga mansub bo‘lib, o‘zbek tilining bir shevasi hisoblanadi. Xorazm shevasidan hozirgi kunda Xorazm viloyati aholisidan tashqari Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari va ularning atrofidagi yashovchi aholi foydalanadi. Xorazm shevasidagi ba’zi bir xususiyatlar na o‘zbek tilining qolgan shevalariga na turk tiliga o‘xshamaydi. Undagi ko‘plab so‘zlar xorazm hududi shevasiga xosdir.

Kalit so’zlar: Xorazm, sheva, fonetik o’zgarishlar, Turkiy tillar, O’guz tillari.

Xorazm, ko‘pgina tadqiqotchilar qayd etganidek, o‘ziga xos etnofolklyoriy mintaqa bo‘libgina qolmay, balki etnolingvistik mintaqa ham hisoblanadi. Hali ushbu vohaning o‘rganilmagan, jiddiy ilmiy nuqtai nazar tashlanmagan jihatlari talaygina.

Xorazm mintaqasi ko‘plab etnik guruhlarning birlashmasi hisoblanadi. Bu mintaqada turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar yonma-yon istiqomat qilishadi. Shu sababli Xorazm shevasi leksikasida bu tillarga xos so‘zlar ko‘plab uchraydi. Taniqli shevashunos olim Y. Jumanazarovning ta’kidlashicha, yuqorida nomlari qayd qilingan xalqlarga alohida etnik nomlar bu maskanda qadimgi turkiy qabilalarga xos bo‘lgan etnik guruhlar bilan aralash holda uchraydi.

Bunga alan, os, chovdir, qo‘ng‘irot, chigil, do‘rman, mang‘it kabi toponimik atamalarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday nomlar viloyatda 40 dan oshadi. Bu narsa Xorazm shevalarining fonetik qurilishida ham, leksik va sintaktik qurilishida ham ancha murakkab bo‘lgan grammatik hodisalar mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu yerda o‘g‘uz shevalarining ta’siri boshqalariga qaraganda kuchliroq.

Xorazm shevasi turkiy tillar sharqiy o‘g‘uz guruhiga mansub bo‘lib, o‘zbek tilining bir shevasi hisoblanadi. Dastlab Xorazm aholisi sharqiy eron deb atalmish tilda gaplashgan. Xorazm-turkiy tili eramizning birinchi asrlari boshlarida, Turk xoqonligi (567 — 603) davrida xorazmiylarning tilini turklashtirish oqibatida shakllanishni boshladi va asosan ushbu jarayon XI asrda saljuq bosqinidan keyin jadallashdi. Jarayon 1220 yili Chingizxon jangchilari bosqini oqibatida Xorazmshohlar davlati so‘nganidan keyin yakunlandi. Plano-Karpini guvohlik berishicha, XIII asrdanoq xorazmiylar orasida turk nutqi ustun bo‘lishni boshladi. XIV asrning 1-yarmi xorazmiylar tilining to‘liq turkiylashishi yakuniy davri bo‘ldi. O‘rta osiyo turkiy tili rasmiy til bo‘ldi va Xiva xonligida rasmiy til sifatida 1920 yilgacha foydalanildi. Xorazm shevasiga O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismlaridagi, shimoli-sharqiy Eronning Xuroson viloyatidagi ba‘zi shevalar va Qozog‘istonning 2 ta shevasi yaqin keladi.[1]

Xorazm shevasi til sifatida Xiva xonligi davlatida, shuningdek uning o‘rnida 1920-yilda tashkil etilgan Xorazm xalq sovet respublikasida (XXSR) davlat tili maqomida bo‘lgan. Ammo 1924- yili ushbu hududlarning barchasi O‘zbekiston SSR ga o‘tkazilishi natijasida yozuv tili sifatida tugatilib faqat og‘zaki nutqdagi bir sheva holiga kelib qoladi.[2]

Xorazm hududi va aholi soni jihatidan unchalik katta bo‘lmasada, O‘zbekiston Respublikasida til, madaniyat va boshqa xususiyatlar jihatgan o‘zga xos o‘ringa egadir. Mamlakat hududi bo‘ylab xorazm hududining so‘zlashuv tilini (shevasini) xorazmcha deya nomlashadi. Xorazm shevasidan hozirgi kunda Xorazm viloyati aholisidan tashqari Qoraqalpog‘istonning To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari va ularning atrofidagi yashovchi aholi foydalanadi.[3]

---

[1] Самойлович Н. Тюркское языкознание. Филология. Руника. М., 2005.Саматова Х. С, А. И. Ишанов. Образование Хорезмской и Бухарской Народных Советских Республик, в кн.: История советского государства и права, т. 1. М., 1968


[2] EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezm-Oğuzcası. 114-126 b.

[3] Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966.

Xorazm hudududa boshqa shevalardan farqli bir shevada gaplashilishi haqida birinchilardan bo‘lib yozgan olim Vemberydir.[4]
Xorazm shevasidagi ba’zi bir xususiyatlar na o‘zbek tilining qolgan shevalariga na turk tiliga o‘xshamaydi. Undagi ko‘plab so‘zlar xorazm hududi shevasiga xosdir.
Xorazm shevasini yozuvga aylantirishda ko‘plab qiyinchiliklarga uchrash mumkun. Chunki lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida sheva so‘zlariga mos keluvchi tovushlar yetarli emas.[5]
Xorazm o‘g‘uz shevalari leksikasidagi mavjud juda ko‘p so‘zlar adabiy til leksikasida bor. Ular shaklan va mazmun jihatdan hech qanday farqlanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жуманазаров Ю. Ўзбек адабий тили ва Жанубий Хоразм диалекти. Т.: Фан, 1971.
2. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. –Т., 1966.
3. Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси.–Т.: “Фан”, 1973.
4. EKER S. Özbekistan'da oguzca bir diyalekt .Güney Harezm-Oğuzcası. 114-126 b.



[4] Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикаси.–Т.: “Фан”, 1973.
[5] Жуманазаров Ю. Ўзбек адабий тили ва Жанубий Хоразм диалекти. Т.: Фан, 1971.